

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## FONETIKA

*Mamarahimova Mashhura JDPU talabasi*

**Annotatsiya:** Tilshunoslikda fonetikaning ahamiyati, fonetikani o'rganishning metodlari, tilshunoslikga fonetikani kirib kelish tarixi, o'zbek tilida fonetika, fonetikaning bo'limlari, fonetikaning fonologiya va fonema bilan bog'liqligi.

**Kalit so'z:** Til, tilning ta'rifi, tilni o'rganish tarmoqlari, fonetika, fonologiya, fonema, ekstralingvistika sotsiologiya, vistika, metalingvistika, (qiyosiy-tarixiy, chorishtirma, areal, tipologik) tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, tilshunoslik aspektlari, tilshunoslik nazariyasi.

Fonetika (yunoncha) fonetikos-tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovoqli degan ma'nolarni bildiradi. Tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunolar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari grafika va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari imloni qo'shib, uning o'rganish obyektini yanada kengaytirdilar. O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari ularning artikulyatsion, akustik, persektiv (psixofonetik) va funksional tomonlari va ohang (bo'g'in, sentagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi. Nutqning tovush tomoni segment (lotincha) segmentum-qirgim, parcha bo'lak va ustsegment supersegment birliklarga bo'linadi. Segment birliklar ketma-ket joylashadi. Shuning uchun ularni silsilali yoki ketma-ket birliklar deyish mumkin. Ustsegment birliklarga urg'u va ohang kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi. Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffus etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni tebratishdan hosil bo'ladi, demak uning akustik jihati bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qayt qilar ekan, ushbu majmui zaminidagi ma'noni idrok etadi bu persektiv psixofonetik xususiyat hisoblanadi. Va nihoyat, eng muhimi, nuqt ma'lum bir vazifa bajaradi. Binobarin, funksional qiymatga ega. Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlarga ko'ra turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:

Umumiy fonetika, tarixiy fonetika, tasviriy fonetika, qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika yuqoridagi bilan birga hususiy fonetika ham ajratiladi, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi. Qiyosiy fonetika ikki til fonetikasini, qarindosh tillar tovush tizimini bir-biriga qiyoslab o'rganadi. Eksperimental fonetika nutq tovushlarini, fonetik hodisalarni ma'lum texnik vositalar yordamida o'rganadi. Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini

o'rganish 17-asrda boshlangan bo'lib, bu hol kar-soqovlarni o'qitish ehtiyojidan kelib chiqqan (ispaniyalik X.P. Bonet, angliyalik J. Uilkins, niderlandiyalik I.Amman asarlari). Tilning tovush tomonini har jihatdan lintvistik nuqtai nazardan o'rganish birinchi marta nemis olimi E. Zevernsning "Tovush fiziologiyasi asoslari"(1876, 2 nashr "Fonetika asoslari" deb nomlanadi, 1881) asarida kuzatiladi. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I.A.Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A. Bogoroditskiy va L.V. Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar. Fonetikaning tilning boshqa sohalari bilan bog'liq chunki tovush, urg'u va ohangsiz bo'g'in, so'z birikmasi va ran bo'lmaydi. Shu tufayli fonetika leksika, morfologiya, sintaksis va stilistika bilan bog'liq til bosqichi deb qaraladi. Hozirda o'zbek tili fonetikasi ham chuqur o'rganilmoqda. O'zbek tilining tasviriy fonetikasini tatbiq qilishda V.V. Reshedov, Sh.Shoabdurahmonov, fonetika Abdullayev, A G'ulomovlar; o'zbek tili fonetikasini 60-yillar oxiridan eksperimental o'rganishda A. Mahmudov va S. Otamirzayevlar; o'zbek tilining fonetik asini o'rganishda fonetika Abdullayev, G'. Abdurahmonov, A.Rustamov, Q. Mahmudov, H.Ne'matov, E.Umarovlarning xizmatlari katta. Fonetika fonologiya bilan uzviy bog'liq. Ma'lum tilga xos tovushlarning akustik va artikulyatsion (fiziologik) xususiyatlari, muayyan tilning fonetik tuzilishi. Masalan, o'zbek tili fonetikasi. Fonetikani bo'limlari. Fonetika avvalo umumiy, xususiy va qiyosiy fonetika ga ajraladi.

Umumiy fonetika. Inson talaffuz apparatining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nutq tovushlari hosil qilishning umumiy shartlari (maslan, undoshlarning hosil bo'lishi o'rniga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshlarining farqlanishi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi-sirg'aluvchi tovush xossalari aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushlarning umumiy akustik xossalari o'rganiladi.

Xususiy fonetika. Bunda yuqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy fonetika va zamonaviy, muosir fonetika, sinxron fonetika va eksperimental fonetika ko'rinishida ish yuritadi.

Qiyosiy fonetika. Bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarning, yoxud bur qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o'zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy aspektlarida tekshiriladi.

Fonologiya.

Fonologiya (grekcha rhone-tovush, logos-ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishlarining struktur va funksional qonuniyatlarini o'rganuvchi soha bo'lib, semiotic (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektidan o'rganadigan fonetikadan farqlanadi. Fonologiya nutq nazaridan nutq tovushlari

fonema deb yuritiladi. Fonema eng kichik til birligi bo'lib, so'zlari, morfemalarni, o'zaro farqlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Matusevich M.I. Vvedeniye v Obshuyu "Fonetika" 1959
2. Reshedov V.V. Uzbekiskiy yazik ch, 1
- 3.Vvedeniye "Xozirgi o'zbek adabiy tili" 1966
- 4.Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A., "Umumiy tilshinoslik" 1979
- 5.Ne'matov H." O'zbek tilining tarixiy fonetikasi " 1994